

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EKZOTIK LEKSIKANING BERILISHI (IMLO MUAMMOLARI)

S. Yuldoshev ¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada xar bir tilda mavjud bo‘lgan ekzotik so‘zlar va ularning imlo qoidalari haqida fikrlar keltirilgan bo‘lib unda berilgan misollar orqali keltirilgan fikrlar o‘z tasdig‘ini topadi. Ekzotizmlarning yozilishi ularning to‘g‘ri yoki ikkinchi bir til orqali kirib borishi bilan bog‘liqligi, tillar o‘rtasidagi yaqinlik masalalariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ekzotizm ,zebra, yurt, vazir villa, vodka, vodiy.

doi: <https://doi.org/10.2024/7xqpa992>

Dunyo jamiyat taraqqiyotining turli sohalaridagi izchil o‘zgarishlar va tabiat bilan bog‘liq xolda sodir bo‘layotgan hayotimizdagi turli voqea xodisalarini nomlanishi, dunyo davlatlaridagi iqtisodiy o‘sish yangidan yangi texnologiyalar paydo bo‘lishi va ularning hayotimizda muhim o‘rin tutishi shuningdek geografik jixatdan turli hududda yashayotgan ko‘pgina xalqlarning boshqa xalqlarga xos bo‘lmagan va boshqa xalqlar tillarida leksik ekvivalenti mavjud bo‘lmagan, ularning lug‘at boyligida uchramaydigan, ma‘nodoshi bo‘lmagan so‘zlar borki, ularni qanday ma‘no anglatishi mumkin ekanligini tushunish o‘quvchida shu so‘z va uning ma‘nosini bilishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi. Tilshunoslikda bunday so‘zlar “ekzotizm” atamasi bilan yuritiladi.

“Ekzotizm” (yunoncha “exotikos” begona, g‘ayrioddiy, tashqaridagi) ma‘nosini ifodalaydi. Ekzotizm atamasining tilshunoslikda qo‘llanilib shakllana boshlash tarixi G.L.Zelinin tomonidan tafsiflanadi. ekzotizm so‘zi dastlab adabiy tanqid atamasi sifatida ilmiy qo‘llanilgan. Bu o‘tgan asrning 10-yillarida kuzatilgan bo‘lib ular xorijiy mamlakatlarning hayoti va hayot xususiyatlarining tasvirini ifodalagan bo‘lsa, ushbu atama birinchi marta tilshunoslikda 1937-yilda L.A.Bulaxovskiy² tomonidan Kavkaz tillaridan so‘zlarni tavsiflovchi asarlarida qo‘llanilgan. M. Yu. Lermontov va A.A.Bestujev Marlinskiylarning takidlashicha "ekzotizmlar kouler lokali(mahalliy rang, boshqacha aytganda, kolorit) yaratish uchun ishtirok etadi". Umuman olganda ushbu atama va unga berilgan tarif-u tafsiflar ekzotizm va u haqidagi munozaraning rivojlanish tarixi N.A.Filatovaning ishida ham keltirilgan³

¹ *Yuldoshev Samad Tojiyevich, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi*

² Булаховский А. Курс русского литературного языка. Киев Радянська школа 1952-С49

³ Русская экзотическая лексика во французском языке и французская экзотическая лексика в русском языке: диссертация ... кандидата филологических наук: 10.02.20 / Филатова Нина Алексеевна; [Место защиты: Моск. пед. гос. ун-т]. - Москва, 2009. - 290 с.: ил. РГБ ОД, 61 09-10/720

A.E. Supruning "Ekzotik leksika" asarining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.¹ Ushbu asarda A.E. Suprun muntazamlik g'oyasini ifodalagan va hayotni tasvirlash uchun xizmat qiluvchi so'zlarning har qanday tilda ko'rinishi zarurati boshqa xalqlar, tarixiy va geografik ekzotizmlarning ajralmasligi haqida ta'riflar berilishi, bu yerda ular terminologik xususiyatga ega ekanligini aytadi, shuningdek, ekzotik so'zlar ular uchun asl va tarjima adabiyoti asarlarida muhim o'rin tutishi takidlanadi.

Ekzotizmni - qabul qiluvchi tilning ona tilisida so'zlashuvchilarga yot bo'lgan voqelikni uzatishi deb ham aytishga ishora qilish bilan birga ekzotizmlarni turli darajadagi uyg'unlashtirish imkoniyati deb biladi. A.E. Supruning fikriga ko'ra ularning ba'zilar milliylik (milliy o'ziga xoslik, koloritlik)ni yo'qotishi mumkin degan xulosaga keladi.

Xar bir tilda mavjud bo'lgan ekzotik so'zlar borki ular yangi tilga qabul qilinishi, ekzotik so'zning grafik ko'rinishini o'zgarishiga olib kelishi mumkin bunda tildagi til me'yoriy qonun qoidalar birlamchi o'rin tutadi. Tilshunoslikda umuman tilimizdagi barcha olinma so'zlar kabi ekzotik so'zlarning boshqa so'zlardan farqli xususiyatlaridan yana biri ularning barcha tillarda xuddi asl, ona tilisida yozilishiga yaqin yozilishi yoki talaffuz qilinishidir: *Zebra-zebra, yurt -yurt, villa- wazir villa, -vazir, vodka-vodka, wadi-vodiy, vatican- vatikan, tsar-tsar, tsunami-sunami, tornado-tornado, tatami-tatami, taramasalata- taramasalata, tango- tango* kabi ekzotik so'zlar yuqorida keltirilgan ekzotik so'zlar namunasi aynan yozilishi barcha tillarda bir xil yoki yaqin bo'lgan ekzotik so'zlar qatori hisoblanadi.

Ammo barcha ekzotik so'zlarni aynan shu qoidaga ko'ra yoziladi deb qabul qilish ham maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Odatda istalgan olinma so'z har bir tilga to'g'ridan-to'g'ri kirib borsagina ularning yozilishi, fonetik jihatdan talaffuzidagi yaqinligi saqlanib qoladi. Lug'atimizdagi barcha ekzotik so'zlar ham bizning tilga aynan asl tildan kirib kelmagan, yani ekzotik so'zlarning bazi birlari tilimizga boshqa til birliklari singari boshqa, ikkinchi bir til orqali kirib kelgan bo'lishi mumkin. U holda esa ekzotik so'z ikkinchi til fonetik va orfografik qoidalariga bo'ysungan holatda aslidagidan biroz o'zgarishga uchrashi mumkinligi tilda sodir bo'ladigan tabiiy jarayon hisoblanadi. Ammo ayni o'sha ekzotik so'z uchinchi tilga asl tildan qabul qilingan ikkinchi til orqali kirib borishi asl tildagi nafaqat ekzotik so'zlarning balki istalgan so'zning grafik jihatdan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masalan, arab tilidagi "jin" so'zi ingliz tiliga fransuz tili orqali kirib borgan, fransuz tilida esa bu so'z talaffuzidagi so'z boshiga "d" jarangli undosh orttirilganligi natijada "djinn" yozilgani uchun ingliz tiliga ham aynan "djinn" kabi ko'rinishga ega bo'lgan. Arab tilidagi "faqir" ingliz tiliga rus tili orqali kirib borganligi uchun rus tilida "fakir" tarzida yozilgan. Negaki rus alifbosida "q" harfi yo'q. Shuning uchun "k" harfidan foydalanilgan va bu ham ingliz tilida "fakir" tarzida yozilib ketilishiga asos bo'lgan. Xuddi shunday italyanacha "karnaval" so'zi o'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgani sabab ingliz tilida "carnival" holatidan rus tiliga "карнавал" bo'lib yozilgan, shu bois o'zbek tiliga bu so'z "karnaval"² bo'lib kirib kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Ekzotik so'zlarning yozilishidagi yana bir jihat shundaki, bunda ekzotik so'zni qabul qilayotgan tilning orfografik qoidalari va undagi harflar, shuningdek ular hosil

¹ Супрун А. Е. Экзотическая лексика // Научные доклады высшей школе. Филологическая науки - М., Наука 1958. - № 2 - С. 51-54

² O'zbek tilining izohli lug'ati Ikkinchi jild A. Madvaliyev, D. Xudayberganova tahriri ostida to'ldirilgan va qayta ishlangan nash. G'ulom nomidagi nashriyot uyi 762 b

qiladigan tovushlarga bog'liq bo'ladi. Masalan, kelib chiqishi ingliz tili bog'liq bo'lgan "football", "basketball" so'zlari o'zbek tilida "futbol", "basketbol" tarzida yoziladi. Negaki ingliz tilidagi ikkita "o" harfi yonma yon kelsa "u" tovushini berishi, "l" harfidan oldin "a" kelsa, "o" bo'lib talaffuz qilinish qoidasi boshqa tilda jumladan o'zbek tiliga taalluqli emas. Shu sababdan bu so'z ularning qanday talaffuz qilinishiga qarab o'zbek tilida yozilishi shu tariqa qabul qilingan. Agar ularning aynan yozilishi bo'yicha qabul qilib yozilishini ham ingliz tilidagidek qabul qilganimizda unda bu so'zlarning o'qilishi o'zbek tilida o'zgacha ko'rinishga ega bo'lib, asl til bo'lgan ingliz tilidagidan mutlaqo boshqacha talaffuz hosil qilgan bo'lardi: ing: "football"-o'zb: "footbal" kabi.

Aynan shunday qoidaga ko'ra qabul qilingan ayrim ekzotik so'zlar quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

	O'zbekcha	Inglizcha
1	Halol	Halal
2	Holva	Halwa
3	Gamburger (ruscha talaffuzi orqali kirib kelgan)	Hamburger
4	Haram	Harem
5	Yelena	Helena
6	Hijob	Hijab
7	Gollivud (ruscha talaffuz orqali kirib kelgan)	Hollywood
8	Imom	Imam
9	Islom	Islam
10	Qur'on	Koran

Ekzotik so'zlar asl tildan to'g'ridan to'g'ri qabul qilinganda ham yoki ikkinchi bir til orqali kirib kelganda ham ular fonetik yaqinligini 90% gacha amalda saqlab qoladi. Biroq yozuvlardagi farq tovush hosil qilishdagi turli alifbolardagi farqlarning mavjudligi evaziga ekzotik so'zlarning imloviy qurilishini ham asl tildagidan farqli grafikani hosil qilishi mumkin. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki ekzotik so'zlar fonetik, ohang tomondan o'z asl tildagi eshutilishini saqlab qola oladi, grafik jihatdan esa retsipient tilning ichki imkoniyatlaridan va tillar o'rtasidagi qardoshlik, yaqinlik darajasiga qarab farqlanaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild A.Madvaliyev, D.Xudayberganova tahriri ostida to'ldirilgan va qayta ishlangan nashr. G'.Gulom nomidagi nashriyot.

[2]. Крысин Л.П. Иноязычные слова в русском языке. -М Наука, 1968

[3]. Супрун А.Е. Экзотическая лексика//Научные доклады высшей школе. Филологическая наука -М.,1958.

[4]. А.Булаховский Курс русского литературного язык. Киев Радянська школа 1952-С49

[5]. Русская экзотическая лексика во французском языке и французская экзотическая лексика в русском языке: диссертация ... кандидата

International Conference

**THE DEVELOPMENT HISTORY AND MODERN SIGNIFICANCE OF INTERCULTURAL
DIALOGUE**

*филологических наук: 10.02.20 / Филатова Нина Алексеевна; [Место защиты:
Моск. пед. гос. ун-т]. - Москва, 2009. - 290 с.: ил. РГБ ОД, б1 09-10/720*